



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 14 - oktabr

162-8-0-Q/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

**O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-
quvvatlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuni 6-moddasiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati to‘g‘risida” 1992-yil 28-maydagi PF-411-sonli Farmoni, 2018-yil 4-maydagi “Mamlakatni demokratik yangilash jarayonida fuqarolik jamiyati institutlari rolini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5430-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati to‘g‘risida” 1992-yil 5-oktabrdagi 458-sonli qarori hamda 2020-yil 26-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va bunday vazitlarda harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 515-sonli qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida

QAROR QILAMAN

1. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyatining 2021-yil 7-sentabrdagi 01/329-sonli xati inobatga olinsin.
2. 2021-yil 11-20-noyabr kunlari O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash xayriya o‘n kunligi o‘tkazilsin.
3. O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkilotining insonparvarlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash maqsadida xayriya o‘n kunligini o‘tkazish tashkiliy qo‘mitasi tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
4. Viloyatdagi barcha boshqarma, tashkilot, muassasa, idora va korxonalariga xayriya o‘n kunligi davomida faol ishtirok etishlari tavsiya etilsin.
5. Termiz shahar va tumanlar hokimlari, barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tashkilot, korxonalar va muassasalar rahbarlari xayriya o‘n kunligini uyushqoqlik bilan o‘tkazishda O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti va uning Termiz shahar va tumanlar bo‘limlariga ixtiyoriy beg‘araz yordam ko‘rsatilishi tavsiya etilsin.

6. Viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi (J.To‘rayev), viloyat Madaniyat boshqarmasi (Q.Amanqulov) o‘n kunlik davomida xayriya konsertlarini, teatr tomoshalarini, sport tadbirlarini tashkil etsinlar va ulardan tushgan mablag‘ O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti hisob raqamiga o‘tkazilishi tavsiya etilsin.

7. Viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi (I.Qambarov), Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati boshqarmasi (Sh.Saidov), viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov) shaxsiy tarkib o‘rtasida O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti hisobiga ixtiyoriy ravishda shaxsiy badal topshirish va mablag‘ to‘plash yuzasidan tushuntirish ishlarini tashkil etsin.

8. Barcha xo‘jalik yurituvchi subyektlar, tashkilot, korxonalar va muassasalar rahbarlariga bazaviy hisoblash miqdorining 10 foiz miqdorida xayriya mablag‘larini O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkilotining ATB “Ipoteka bank” viloyat filialidagi MFO: 00356, INN: 200479158, 20212000800312165001 hisob raqamiga o‘tkazish tavsiya etilsin.

9. Belgilab qo‘yilsinki, xayriya o‘n kunligi munosabati bilan to‘plangan mablag‘lar jamiyat Ustaviga muvofiq yolg‘iz keksalar, nogironlar, boquvchisini yo‘qotgan va kam ta‘minlangan oilalarni ijtimoiy himoyalashga, tabiiy va texnogen falokatlarda jabrlanganlarga gumanitar yordam hamda favqulodda vaziyatlarda birinchi yordam ko‘rsatish uchun zaxira yaratish ishlariga sarflanadi.

10. Viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev)ga Qizil Yarim Oy xalqaro harakati faoliyatini targ‘ib qiluvchi ijtimoiy reklama homiylik asosida tayyorlanishi va efirga uzatilishi tavsiya etilsin.

11. “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga xayriya o‘n kunligini o‘tkazish davomida Qizil Yarim Oy xalqaro harakatining faoliyatini keng yoritish tavsiya etilsin.

12. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari F.Tairov zimmasiga yuklansin.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг
2021 йил 14 октябрдаги
162-8-0-Q/21-сон қарорига
1-илова

**О‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkilotining insonparvarlik faoliyatini
qo‘llab-quvvatlash maqsadida xayriya o‘n kunligini
o‘tkazish tashkiliy qo‘mitasi**

T A R K I B I

F.Mamanov	- viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari, Tashkiliy qo‘mita raisi
F.Tairov	- viloyat hokimining o‘rinbosari, Tashkiliy qo‘mita raisi o‘rinbosari
I.Saparov	- viloyat hokimining o‘rinbosari
U.Turapov	- viloyat hokimining o‘rinbosari
J.To‘rayev	- viloyat hokimining o‘rinbosari
A.Oripov	- viloyat hokimining o‘rinbosari
R.Akbarov	- O‘zbekiston Qizil Yarim Oy jamiyati viloyat tashkiloti raisi, Tashkiliy qo‘mita mas‘ul kotibi
N.Kadirov	- viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i
A.Ismoilov	- viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i
Sh.Saidov	- Milliy gvardiya Surxondaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i
M.Murodov	- viloyat Qishloq xo‘jaligi boshqarmasi boshlig‘i
T.Alimov	- “Amu-Surxon” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi boshlig‘i
B.Xursanov	- viloyat Moliya bosh boshqarmasi boshlig‘i
I.Qambarov	- viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i
S.Eshmatov	- viloyat Soliq boshqarmasi boshlig‘i
U.Zokirov	- Markaziy bank viloyat bosh boshqarmasi boshlig‘i
R.Xamroyev	- viloyat G‘aznachilik boshqarmasi boshlig‘i
J.Qilichov	- “Surxondaryoavtoyo‘l” hududiy yo‘llardan foydalanish tashkiloti direktori
K.Abdivohidov	- viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i
A.Maraximov	- Termiz davlat universiteti rektori
F.Otamurodov	- Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Termiz filiali direktori
O‘.Axmedov	- I.Karimov nomidagi Toshkent Texnika Universiteti Termiz filiali direktori
A.Jurayev	- Toshkent davlat agrar universiteti Termiz filiali direktori
G‘.Raximov	- Samarqand davlat universitetining Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti rektori
S.Hamidova	- viloyat Xalq ta‘limi boshqarmasi boshlig‘i
Z.To‘laganov	- viloyat Maktabgacha ta‘lim boshqarmasi boshlig‘i
S.Jumayev	- viloyat Bandlik bosh boshqarmasi boshlig‘i
Q.Amanqulov	- viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i
J.To‘rayev	- viloyat Turizm va sport bosh boshqarmasi boshlig‘i
M.Shamsiddinov	- “Surxondaryo hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” aksiyadorlik jamiyati bosh direktori
M.Mansurov	- “Hududgaz Surxondaryo” gaz ta‘minoti filiali direktori
B.Gulyamov	- “Surxondaryo suv ta‘minoti” mas‘uliyati cheklangan jamiyati direktori
B.Mingboyev	- viloyat teleradiokompaniyasi direktori
S.Norqobilov	- “Surxon tongi” va “Zarya Surxana” gazetalari birlashgan tahririyati bosh muharriri
Lavozimiga ko‘ra-	tijorat banklari rahbarlari
Lavozimiga ko‘ra-	shahar va tumanlar hokimlari